

TIBBIY KIMYO FANI MAVZULARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH

Abdurahimova Malikaxon Tohirjon qizi

Tibbiy kimyo fani o'qituvchisi

Sufiaxunova Dilnoza Abdusalom qizi

Biokimyo fani o'qituvchisi

Musojonova Zebiniso Shuhratjon qizi

Tibbiy kimyo fani o'qituvchisi

Igamberdiyeva Dilnoza Ma'murjon qizi

Tibbiy kimyo fani o'qituvchisi

Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiy kimyo fanida zamonaviy ta'lif interfaol metodlardan foydalanish tadqiqotlar haqida

Kalit so'zlar: interpassiv, interfaol, klaster, nilufar guli, blis-so'rov, avitaminoz, gipervitaminoz, gipovitaminoz, klinika.

Kirish:

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida va Tibbiyot texnikumlarida tibbiy kimyo va biokimyo fanlarini o'qitishda zamonaviy ta'lifning ilmiy-pedagogik asoslarini, jumladan interfaol innovatsion usullarini qo'llash yaxshi samara beradi. Fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy muammolari, fanni o'qitishdagi innovatsiyalar, o'quv dasturi, ma'ruza matnlari, mavzularga doir tayyorlanayotgan keyslar, amaliy topshiriqlar, nazorat savollari va boshqalar qatorida turli interfaol usullardan foydalanimoqda. Tibbiyot texnikumlarida ham tibbiy kimyo fani o'qitiladi va undagi Vitaminlar mavzusi misolida interfaol usullardan foydalanib o'qitishni tadqiqot qilib ko'rdik.

Tadqiqotning maqsadi. Maqsadimiz o'qtishning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish, mavzu yuzasidan elektron o'quv modul ishlanmasini shakllantirish hamda o'qitishni takomillashtirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan





Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

iborat. Masalan, biokimyo fanidan "Vitaminlar" mavzusini o'qitish buyicha olib borilgan tadqiqotni kurib chikaylik. Interpassiv uslubda mashg'ulot o'tilgan guruhdagi talabalarning bu mavzuni o'zlashtirishlari interfaol uslubda (blis surov, klaster va nilufar guli usullarini qo'llab) dars o'tilgan guruhlarning talabalari o'zlashtirishlari o'rtasidagi keskin farqni ko'rish mumkin.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talabani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'lik. Shuning uchun ham, ta'lif muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'lifda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Interfaol ta'lif ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchi o'rtasidagi o'zaro harakatni amalga oshiruvchi dialogli ta'lifdir. Interfaollik - ta'lif doirasida prinsipial yangi xodisa - shu tufayli ta'lif oluvchi ta'lif sub'ektlari bilan faol o'zaro harakatda bo'lishidir.

"NILUFAR GULI" chizmasi - muammoni echish vositasi bo'lib, o'zida nilufar guli ko'rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to'qqizta katta to'rt burchaklar tashkil etadi. Tizimli fikrlash, taxlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi. Darsda o'qituvchi chizmani tuzish qoidasi bilan tanishtiradi. Talabalar alohida kichik guruxlarda chizma tuzadilar: to'rt burchak markazida avval asosiy muammoni (g'oya, vazifani) yozadilar. Uning echish g'oyalarini esa markaziy to'rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to'rt burchaklarga yozadilar. Markaziy to'rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to'rt burchaklarga yozilgan g'oyalarni, atrofda joylashgan sakkizta to'rt burchaklarning markaziga yozadilar, ya'ni gulning barglariga olib chiqadilar. Shunday qilib, uning xar biri (xar bir vitamin etishmasligi) o'z navbatida yana bir muammodek ko'rildi.

Keyingi bosqichda talabalar chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruxlarda chizma tuzadilar: avval asosiy muammoni (avitaminoz, gipovitaminoz va gipervitaminoz) yozadilar, so'ngra kichik muammolarni, ularning har biridan esa, kichik muammoni batafsil ko'rib chiqish uchun "kichik bargchalarni" chiqaradilar. Shunga asosan har barg g'oya rivojlanishini batafsil kuzatish mumkin. Nilufar guli organayzeri ko'rinishini quyidagicha tasvirlash mumkin:

Organayzerning markazidagi A xarfi ostida umumiy muammo "Vitaminlar miqdorining uzgari tufayli kelib chiqadigan kasalliklarning sabablari nimalar?"



savoli qo‘yiladi. A markaziy katakcha atrofidagi 8 ta xarf ostiga alohida vitaminlarning xarflari nomlari qo‘yib chiqiladi, ya’ni xar bir katak endi yana bir muammoga aylanadi - masalan A vitaminining miqdori va uning o‘zgarishi, manbalari, eng ko‘p vitamin tutgan maxsulot, uni qanday saqlash kerakligi, avitaminoz, gipovitaminov va gipervitaminozlarning sababalari yoritiladi.

Xuddi shunday tartibda markaziy katakdagi 8ta muammoning xar biri alohida muammo sifatida yoritiladi, ya’ni ularning echimlari izoxlab beriladi. Masalan: markaziy A katakdagi S katakka S vitaminiga oid ma'lumotlar quyidagicha joylashtiriladi. S markazli katakchining S xarfi atrofidagi 8 ta katakka A vitaminiga oid, kasalliklarga sabab bo‘ladigan yoki uning oldini olish uchun zarur bo‘lgan quyidagi ma'lumotlar yoziladi:

- 1-katakka: vitamining nomenklaturasi (S vitamini - askorbin kislota),
- 2-katakka: S vitaminining fasifalari (organizmni infeksiyalarga kari kurashishiga yordam beradi, xo‘jayra yangilanishini stimullaydi, tish va milklarni yaxshi saqlanishini ta'minlaydi va boshqalar),
- 3-katakka: S vitaminiga boy bo‘lgan manbalari (o‘simliklarda, meva sabzavotlarda, jo‘xori, kartoshka va boshka poliz ekinlarida, daraxtlar yaproqlarida, ayrim xayvon organizmi to‘qimalarida uchraydi),
- 4-katakka: eng ko‘p S vitamini tutgan maxsulot (namatak, sitrus mevalari (limon) va boshqalar),
- 5-katakka: sifati buzilmasligi uchun qanday saqlash kerakligi,
- 6-katakka: avitaminoz oqibatlari (milklar shishadi, tishlar tushadi),
- 7-katakka: gipovitaminov oqibatlari (singa kasalligi, bosh aylanadi, xolsizlik),
- 8-katakka: gipervitaminoz oqibatlari (turli salbiy oqibatlar, jumladan zaxarlanish, yomon shishlar paydo bo‘lishi).

Talabalar bir necha betdan iborat matnni o‘qishdan ko‘ra mazkur organayzer yordamida qisqa vaqtida vitaminlarning xususiyatlarini, odam organizmidagi vazifalarini, ularni qo‘llash yo‘llari, vaqtlarini, etishmasligi yoki mavjud emasligi natijasida qanday klinik oqibatlar kuzatilishi kabi ko‘plab ma'lumotlarni yodda qoladigan darajada bilib oladilar. Xulosa va tavsiyalar:

1. Mashg‘ulotni interfaol usulda o‘tish yaxshi samara beradi, shuningdek, zamonaviy texnik vositalarga tayangan holda o‘tish maqsadga muvofiqdir.
2. Amaliy mashg‘ulot va mustaqill ta’limga e’tiborni kuchaytirish kerak. Fikrlashga o‘rgatish pedagogikaning asosiy yo‘nalishidir. Buning uchun sub'ekt-sub'ekt tizimida dars o‘tish zarur.



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

3. Talabalarni kitob mutolaa qilishga, kompiyuter va internet tarmogidan foydalanishga e'tiborni qaratish kerak.
4. O'qituvchi talabalarning o'zlashtirishini to'g'ri kuzatib borishi va ularning biliminiadolatli baholashi kerak.
5. Talabalarning mavzuni o'zlashtirish jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyatda, turmushda qo'llay olish malakasini hosil qilish xam hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Uzbekiston Respublikasining "Ta'lim tugrisida"gi qonuni. Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.
- 2.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.
- 3.Valixonov M.N. Biokimyo. Toshkent: 2010.
- 4.Ziyaev A.A., A. O. Sodikov. Bioorganik kimyo ukuv kullanma Toshkent 2004.
- 5.Chirkin A. A. Praktikum po bioximii. -M.: Novoe znanie, 2000 g.
- 6.Kalman Ya., Rem K.G. Naglyadnaya bioximiya. -M.: Mir,2000 g.